

Faollik saylovchilar talabi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qarshi filialida 2019 yil 25 oktyabr kuni "Saylovchilar faolligi – demokratik islohotlar ifodasi" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbir talabalar bilan ochiq muloqot shaklida tashkil etildi. Tadbirni ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rribosari H.A.Ravshanov olib bordi. Tadbirda TIQXMMI Qarshi filiali direktori Z.M.Muqimov, o'quv va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rribosari Sh.R.Ubaydullayev, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rribosari H.A.Ravshanov, "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish" fakulteti dekani U.I.Qodirov, "Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat" bo'limi boshlig'i B.B.Ro'ziqulov, 15 nafar akademik guruh murabbiylari hamda 254 nafar talaba-yoshlar ishtirok etishdi.

Tadbirga O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi Qashqadaryo viloyat Kengashi Yoshlar bilan ishslash bo'limi mudiri Ma'murjon Qorayev, O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi Qarshi shahar Kengashi deputati Abdusalim Mo'minov, O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi Qashqadaryo viloyat Kengashi Mafkuraviy targ'ibot – tashviqot ishlari bo'limi mudiri Asila Sultonova, O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi Qashqadaryo viloyat Kengashi boshlang'ich partiya tashkilotlari bilan ishslash bo'yicha guruh rahbari Alibek Rahmatovlar taklif etildi. Tadbirni filialimiz rahbari Z.M.Muqimov kirish so'zi bilan ochib berdi. Tadbirda talabalarga O'zbekiston saylov qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi saylov kodeksi, saylov kodeksidagi yangiliklar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari sayloving o'ziga xos xususiyatlari, Markaziy saylov komissiyasi, okrug va uchastka saylov komissiyalarining vazifalari va vakolatlari, saylov tizimining huquqiy asoslari, demokratik saylov, saylovchilarning huquq va erkinliklari to'g'risida batafsil tushuntirib berishdi. Talabalar tomonidan berilgan savollarga tadbir qatnashchilari tomonidan aniq, qisqa va tushunarli tarzda to'laqonli javob berildi.

Tadbir qiziqarli va munozaralarga boy tarzda ko'taringki kayfiyatda o'tdi. Tadbirni yakuniy qismida direktor o'rribosari Shavkat Ubaydullayev so'zga chiqib tadbir mehmonlariga va ma'ruzachilarga filial jamoasi nomidan minnatdorlik izhor qildi.



Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov